

**SINF RAHBARINING O'QUVCHILAR BILAN MULOQOTIDAGI
MAHORATI**

Namangan davlat universiteti Pedagogika fakulteti o'qituvchisi

Sobirova Nigora Qodirjon qizi

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Ilxomjonova Gulsanam Xalimjon qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinfda sinf rahbarining o'quvchilar bilan muloqoti, o'zaro munosabati, o'quvchilarning qobiliyatlarini kashf etish va yo'naltirishdagi kasbiy mahorati haqida fikr yuritilgan

Annotation: this article reflects on the communication, interaction of the class leader with students in the primary class, the professional skills of students in discovering and directing their abilities

Аннотация: В этой статье рассматривается взаимодействие классного руководителя с учениками в начальной школе, их взаимодействие, профессиональная компетентность в открытии и ориентации способностей учащихся

Kalit so'zlar: pedagogik mahorat, shaxsiy fazilat, mahorat, muloqot, suhbat, omil, millat.

Har qaysi pedagog o'z faoliyati mobaynida berayotgan ta'lim-tarbiyasini o'quvchilar yanada samarali o'zlashtirishlari uchun o'zidagi pedagogik mahoratini doimiy o'stirib borishi lozim. O'qituvchi o'quvchilar bilan muloqotni boshlayotganda munosabatlar ko'nikmasini hosil qilishi kerak, chunki o'quvchi o'qituvchining xatti-harakatlarini kuzatib yuruvchi shaxs hisoblanadi. Shaxsiy fazilatlari, o'quvchilarga o'rnak bo'ladigan muomala madaniyati orqali ajralib turadigan pedagog bolaning ishonchiga tez va oson kirib boradi. Shu ma'noda sinf rahbari o'quvchilar uchun o'z navbatda ikkinchi ona o'qituvchi hamda ustoz hisoblanadi. Sinf rahbar o'zi faoliyat yuritayotgan sinfda o'quvchilarga talim-

tarbiya ishlarini olib borish bilan bilingalikda ularning xulq-atvori hamda shaxsiy fazilatlariga e'tiborini qaratishi lozim. Maktab ma'muriyati sinf rahbar olib borayotgan ishlarini har doim qo'llab quvvatlashi hamda ko'maklashib borishi kerak. Chunki sinf rahbari o'z o'quvchilarini yaxshi biladi va ularni tarbiyalash uchun nimalar kerakligini qanday muloqot yuritish lozimligini hisobga olib ish yurutadi.

Sinf rahbarning ishini ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rinnbosari boshqarib turadi. Bolalar o'qituvchining ko'maklashuvi asosida ta'limga birinchi qadamni qo'yadilar. O'quvchilar uchun uztoz faol jamoatchi sifatida har doim namuna bo'lmosg'i lozim. Sinf jamoasidagi barcha o'quvchilarning bir-birlariga qilayotgan muomalalari va ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlari ta'siri o'qituvchining o'quvchilar bilan muloqotidagi mahoratiga ko'proq bog'liq. Bolalardagi salbiy munosabatlarini yaxshilash va intizomini mustahkamlash ularni xulq madaniyatini shakllantirishda sinf rahbarning o'rni beqiyosdir. Sinf rahbari har jahada yetuk, mukammal, aqli, bilimdon hamda barchaga o'rnak bo'la oladigan pedagogik mahoratga ega bo'lmosg'i darkor. Shuni ham unitmaslik kerakki hozirgi kunda bolalarga salbiy ta'sir o'tkazuvchi omillar ham kam emas. Shunday masalalarni inobatga olgan holda pedagog bolalar bilan muloqot yuritayotganda bolalarga to'g'ri ta'sir etuvchi omillarning to'g'ri yo'llarini tanlashini o'rgatib borishi lozim. Tarbiyaviy ishlar jarayonida sinf rahbar har bir o'quvchi haqida to'liq ma'lumotlarga ega bo'lishi sinfni to'laqonli darajada o'rganib borishi kerak. Sinf rahbari o'ziga berilgan sinfni boshqarish bilan biringalikda bolalar uchun mas'uldir. Pedagog o'z ishining ustasi pedagogik mahoratga ega bolgan shaxs hisoblanadi. U o'quvchilarning yurish turishi, tashqi qiyofasiga qarab, muloqoti davomida bolalarni o'ziga jalb qila oladigan muallimdir. Bolalar insonlar bilan muloqot yuritishni eng avvalo oilada so'ngra o'qituvchilardan, o'rtoqlaridan o'rganadi. Xalqimizda shunday naql bor "Ustoz-otangdek ulug' zot" shu birgina so'z zamirida olam olam ma'no mujassamlashgan. Biz otani quyoshga qiyos etamiz, ko'klarga ko'tarib maqtaymiz. Ammo otaday ulug' deb nisbat beriluvchi inson bor, bu-

ustozdir. Ustoz-bu o'zidan keyin har bir qo'lidan o'tayotgan insonning hayotida sezilmas, ammo juda ham muhim iz qoldiruvchi buyuk zot hisoblanadi. Hayotimizda hech qanday inson yo'qki ustoz-muallimning sabog'i ko'maklashuvisiz kamolga yetgan. Har qanday kasb har qanday yetuk insonning ortida bizning muallim uztoszlarimiz bor. Ularning zamirida har bir o'quvchisi yetuk inson hunar egasi bo'lishi uchun sarflagan mehnatlari mahoratlari yotibdi. O'quvchilar bilimli yetuk iqtidorli bo'lib yetishishida o'z hayatini baxsh etgan o'qituvchilar ham kam emas albatta. O'z davrining mashxur pedagogi Abdulla Avloniy "Har bir millatning saodati, davlatlarning tinchi va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog'liqdir", -deb yozgan edi. Yoshlarning yaxshi tarbiya olib yetishishi ularni unib o'sishiga, kamolotga erishishiga ilm-ma'rifat cho'qqilarini zabt etishiga ustoz ko'maklashadi. Bir so'z bilan aytganda har qaysi kasb bo'lishidan qat'iy nazar ustozning bergen ta'lim tarbiyasi, o'rgatgan hunarini ta'riflay olmaymiz. Shuning uchun shogirdlar ustozlari oldida umrbod qarzdor ekanliklarini his etib yashashlari lozim.

Mahorat-pedagogning sinf rahbar darajasiga ko'taradi. O'quvchilarni har taraflama o'rganish esa sinf rahbarining vazifasidir. O'qituvchi faqatgina dars o'tish mobaynida o'quvchilarni o'rganib olmaydi, balki darsdan tashqari vaqtarda ham muloqot qilib turishi oilaviy holati, ijtimoiy hayotdagi moslashuv jarayonidan ham habardor bo'lishi lozim. Bir ikki muloqoti mobaynida o'quvchilarni to'laqonli ravishda o'rganib olish imkonsiz. Shuning uchun sinfdan tashqari mактабдан ташқаридан екскурсиyalar uyishtirib bolalar bilan ko'proq muloqotda bo'lishi zarur. Bolalarning xatti-harakatlari ularning fikrlashi, dunyoqarashi, muloqotiga qarab ularning qanday inson bo'lib shakllanayotganliklari bilinadi. Muallim o'quvchilar uchun bamisolai bir oyna kabitdir. Uning xatti-harakati, insonlar bilan muloqoti, nutq madaniyati, o'z-o'zini boshqarishi, kiyinish odobi bularning hammasini sinf rahbarning yuksak fazilatlaridan biri hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari misolida oladigan bo'lsak, ular mактабдаги eng ko'p vaqtlarini sinf rahbarlari bilan o'tkazadilar, muloqot qiladilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilari oppoq qog'oz mактаб ostonasiga qadam qo'yadilar. Ular mактабни tamomlagunga

qadar sinf rahbari tomonidan tashkil etiladigan faoliyat o‘quvchilarga ta’lim tarbiya berish mobaynida bir-birlariga jipslashishlarida muhim o‘rin egallaydi. Ba’zan bir ona o‘z farzandi uchun tarbiya berishga ojizlik qiladi, muallim esa bir necha bolalarga ta’lim berish bilan birgalikda sinf jamoasini tashkil etadi va ularga ilmu-odob sirlarini o‘rgatadi. Bu jarayonda muallim ko‘plab to‘sqliarga duch keladi, qiyinchiliklarni boshidan o‘tkazadi. Shuning uchun ustozning bergen 1 soatlik ilmini qiyoslashga til ojiz. Maktabda shunday vaziyatlar bo‘ladiki o‘quvchilar oilasida emin-erkin muloqot qilib fikrlab maktab ostonasiga qadam qo‘yganidan so‘ng fikrlarini bayon eta olmasdan o‘rtoqlariga qo‘sila olmay yuradigan o‘quvchilar ham yo‘q emas. Bunday vaziyatlarda sinf rahbar pedagogik mahoratiga tayangan holda ish tutishi lozim. Chunki har bir bolada bu holatning sabablari turlicha bo‘lishi mumkin. Bunday vaziyatlarda sinf rahbari faqatgina o‘zi emas balki bolalarning ota-onasi bilan muloqot qilib ularning ko‘maklashuvi asosida ish yuritishi lozim. Ota-onsa va sinf rahbar o‘rtasidagi hamkorlik bir-birini tushunishi bolaning bunday holatidan chiqib tengqurlari safiga qo‘silib nutqi yaxshilanishiga sabab bo‘ladi. Agar tarbiyachi bolalar uchun harakati mobaynida bir maqsadni aniq qilib maqsad tomon intilmasa pedagogning harakatlari samarasiz holatga kelib qoladi. Pedagog o‘z navbatida o‘z ishining ustasi hisoblanadi. Pedagogik jarayon esa bolalar bilan munosabatlarimizga asoslanadi. Shunday ekan muloqot ham o‘z navbatida insonlar hayotida eng muhim vositalardan biridir. Muloqot-o‘qituvchining pedagogik faoliyatida eng muhim kasbiy qurollardan biri hisoblanadi. Muloqot yuritush mobaynida bolaning tashabbusi uning qiziqishiga qarab ish tutgan maqsadga muvofiqdir. Mashxur pedagoglarimiz tajribalaridan shunday fikr bor; “Biz kattalar, o‘qituvchilar bolalarni, asosan, bizga xush keladigan narsalarga majbur qilamiz, ularning ko‘ngillariga qarab ish tutish esa ko‘p hollarda pedagogik faoliyatimiz doirasidan tashqarida qolib ketadi” degan gaplar bejizga emas. Bolaning qiziqishi tashqi qiyofasi fikrlarini inobatga olgan holda muloqot qilish lozim. Shunda bola o‘qituvchining pedagogik faoliyatidan chetda qolmaydi. Pedagogik muloqotni tashkil etish mobaynida muallim o‘z nutqini bir bola yoki bir jamoani yo‘naltirishga harakat qilishi lozim. Bunday yo‘l tutgan pedagog ta’lim va

tarbiyaning samarali usullarini tanlagani kabi, muloqot yuritishni ham tog'ri shakllantirishdagi muhim vazifani amalga oshirishi demakdir. Shuni ham ta'kidlash kerakki pedagogik jarayondagi muloqot faqatgina bir vazifa bilan cheklanib qolishi mumkin emas. Aksincha, turli xil bolaga mos keladigan vositalardan foydalanishi, har bir o'qituvchini kuzatish mobaynida ularning ko'zidagi ifodani o'qiy olishi, ularga bolalar ko'zi bilan qarashi va har bir o'quvchining faoliyatini tez-tez tahlil qilib turishi kerak. Darsdan tashqari bo'sh vaqtarda sinf rahbari o'quvchilar bilan tez-tez suxbat olib borishi lozim. Pedagog o'quvchilar bilan qanchalik ko'p muloqotda bo'lsa shunchalik ijobiy natijalarga erishib boradi. Maktabdagi har bir bola alohida xulq-atvorga ega, albatta. Ko'plab o'qituvchilar bunday hollarda ular bilan muloqot qilishda biroz qiynaladi. Agar pedagog bunday vaziyatlarda bolalarning qalbiga yo'l topish uchun "qanday qilib", "nima uchun" degan savollar bilan murojat qila boshlasa bu usul o'zaro muloqotning rivojlantirishni ta'minlaydi. Muloqotda eng avvalo kishilar bilan ruhiy aloqani tez yo'lga qo'ya olish mihimdir. Bolalar bilan muloqotda bir xillikka tayanib qolmaslik kerak. Aksincha bir xillik o'quvchilarni tez zerika boshlashiga, suhbat mobaynida e'tiborsizliklariga olib keladi. O'quvchilarning yashirin qobiliyatlarini ular bilan suhbat o'tkazish mobaynida aniqlab olinadi.

Bir so'z bilan aytganda sinf rahbar bir bog'bon bo'lsa o'quvchilar uning gullaridir. Bog'bonning parvarishi bo'lmasa gullar unib, o'sib, gullab hushbo'y iforlar tarata olmaydi.

- 1.SH. Mirziyoev. «Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi». Toshkent: O'zbekiston nashriyoti ,2019. B.254
- 2.Sharopova Z.F. Ta'lim texnologiyalari.O'quv qo'llanma . Toshkent2019."Navro'z nashriyoti".B-298
- 3.Azizzo'jaeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. 2006.B-154
- 4.Ishmuxammedov R.J. «Innovatsion texnologiyalar yordamida o'qitish samaradorligini oshirish yo'llari . 2000.B-213
- 5.Ochilov M. YangI pedagogik texnologiyalar. Qarshi 2000.B-256
- 6.Saidaxmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar . Moliya nashr. 2003.B-197
- 7.Ochilov M. , Ochilova N. Oliy Maktab

Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari

Pedagogikasi- T .: 2008 , 163 182 – betlar. 8.Fayzullaeva D.M. , Ganieva M.A .. Ne'matov 1. Nazariy va amaliy o‘quv mashg‘ulotlarda o‘qitish texnologiyalari to‘plami /Met.qo‘ll . O‘rta maxsus , kasb - hunar ta’limida innovatsion ta’lim texnologiyalari seriyasidan - T - 2013. - 137 b . 9.Muslimov N.A .. Usmonboeva M.H. , Sayfurov D.M. , To‘raev A.B. Innovatsion ta’lim texnologiyalari- T " Sano standart " nashriyoti , 2015. -150 b